

**SUV TANQISLIGI : KELIB CHIQISH SABABLARI VA YECHIMLAR.  
OROL FOJIASI.**

*Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti  
O'rinboyeva Yulduz Pirnazarovna – I.f.f.dok. dotsent*

*Ulduzurunbaeva75@gmail.com*

*Abdurashidov Xurshid Qo'ldosh o'g'li*

*Buxgalteriya Hisobi va Menejment fakulteti BH-423 guruh talabasi*

*xurshidabdurashidov2005@gmail.com*

**Annotatsiya :** So'nggi yillarda dunyo miqyosida suvga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda va suv tanqisligi vujudga kelmoqda. Suvga bo'lgan ehtiyoj odam sonining ortishi va insonning tabiatga bo'lgan shavqatsiz munosabati orqali vujudga kelmoqda.

**Kalit so'zlar :** suv, ko'l, daryo, dengiz, okean, suv tomchilari, vodorod, kislorod.

**Kirish.** Suv – vodorod va kisloroddan iborat eng sodda birikmalardan biridir. Yer yuzida suv 3 agregat holatda uchraydi : suyuqlik ( suv ), bug' ( bulut ), qattiq ( muz). Suv bundan 4 milliard yil oldin paydo bo'lgan. Suv yer yuzida daryolarda, ko'llarda, dengizlarda, okeanlarda, tog'larda, bulutlarda( bug' holatida ), muzliklarda( muz holatida) va yer ostida( artezian, grund va mineral suvlar) bor. Yer yuzidagi hamma tirik organizmlar uchun eng muhim hayot manbai hisoblanadi. Yer yuzining



71 foizi suv bilan qoplangan. Ammo, 1 foizi ichishga yaroqli. Inson ovqatsiz 3 oygacha yashay oladi, ammo suvsiz 3-4 kun yashay oladi.

**Suv tanqisligi vujudga kelishining sabablari.** Suv tanqisligi – bu global muammolardan biri bo'lib, hozirgi kunda o'tgan asrga qaraganda 2 barobar suv iste'moli ortdi. Dunyodagi aholi sonining o'sishi natijasida suvga bo'lgan ehtiyoj ham oshib bormoqda. Suv tanqisligi vujudga kelishining asosiy sabablari:

- 1) Yangi qo‘riq yerlarning o‘zlashtirilishi va suvlarni sug‘orish uchun boshqarilishi.
- 2) Ekstensiv sug‘orish uchun ko‘p suvning sarflanishi.
- 3) Dunyo aholisining o‘sishi orqali suvga bo‘lgan iste‘molning ortishi.
- 4) Tabiatga bo‘lgan shavqatsiz munosabat, ya‘ni suvni ifloslantirish. Bu orqali nafaqat suv, balki hayvonot va nabotot olamiga zarar yetmoqda.
- 5) Suvga bo‘lgan yuzaki qarash: Insonlar suvni cheksiz deb o‘ylshadi va o‘z ehtiyojlaridan ko‘p suv sarflashadi.
- 6) Bee‘tiborlik : ba‘zi insonlar suvning behuda vodoprovod tarmog‘idan oqayotganini ko‘rsalar ham uni berkitishmaydi.
- 7) Suv narxi : insonlar nazarida hozirgi kunda eng arzon tovar bu suv.
- 8) O‘rmon hududlarining kamayishi va daraxtlarning kesilishi ( ma‘lumki daraxtlar



o‘zida namlikni ushlab turuvchi vositalar hisoblanadi).

**Yechimlar.** Suv tanqisligini oldini olish va ta‘sirini kamaytirishga oid yechimlar :

- 1) Suv isrofini kamaytirish bo‘yicha profilaktik tadbirlar o‘tkazish. Aholiga bu qanday oqibatlarga olib kelishi haqida tushuncha berish.
- 2) Suvni qayta ishlashni tashkil etish.
- 3) Ekstensiv sug‘orishdan intensiv sug‘orishga o‘tish. ( Mamlakatimizda 80 foiz oziq-ovqat mahsulotlari qishloq xo‘jaligida yetishtiriladi)
- 4) Yerlarni lazerli tekislash. Bu orqali suv yo‘li ochiladi va suvning yerga shimilishi kamayadi.
- 5) Ariqlarni betonlash. Bu orqali suvning belgilangan joyga tez va ko‘p miqdorda yetib borishi ta‘minlanadi.
- 6) Suvlarga chiqindi tashlamaslik. ( 2020- yil ishlab chiqarilgan 52 milliard tibbiy niqoblarning 1.5 milliarddan ortig‘i dunyo okeaniga tashlangan).
- 7) Qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish.




- 8) Suvsizlikka chidamli yangi navli o'simliklarni yaratish va ularni ko'paytirish, ommaviy ekish.
- 9) Suv narxini sezilarli darajada oshirish va unga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish. (Ayni vaqtda mamlakatimizda ichimlik suvi 1400 so'm)

Suv tanqisligini oldini olish va ta'sirini kamaytirish borasida Los – Angelasda kanalizatsiyani tozalash va suvni qayta ishlash orqali erishilgan. Bizning amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" da ham suv suv dan to'g'ri foydalanishni ta'minlash i va suv tanqisligi oldini olish kabi g'oyalarni o'z ichiga oladi.



**Orol dengizi fojiasi.** Yurtimizdagi Orol dengizining qurishi ham yaqin global muammolardan biri bo'lib, bunga o'lkashunos – geografik olimlarning bir necha qarashlari mavjud :

- 1) Sobiq sovet Ittifoqi davrida mamlakatimizda paxta yetishtirish yo'lga qo'yilgan bo'lib, paxta ekin maydonlarining kengaytirish va ularni suv bilan ta'minlash maqsadida Orol dengiziga boradigan daryo suvlarini hajmi kamaytirish natijasida yuzaga kelgan.
- 2) Tabiiy gaz qazib olinishi natijasida yer ostida bo'shliq yuzaga kelgan. Ma'lumki, tabiiy gaz vakuum orqali qazib olinadi. Buning natijasida yer ostida vakuumli bo'shliq yuzaga kelib bu bo'shliq Orol dengizining tagida yuzaga kelgan. Bo'shliq esa vakuum orqali suvni tortib olgan.



Oxirgi 40-45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli “o’lik” dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. Gektarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuzli aerozollarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln. Tonnagacha chang ko’tariladi. Shu bilan bir vaqtda, Amudaryo va Sirdaryoning deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho’llashish sur’atlari o’sib bormoqda. Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan Orolqumdagi tuzli changlarni shamol uchirib ketyapti. Bu tuzli changlar hattoki Tyanshan va Pomir tog’laridan ham topilgan. Ma’lumki tuz muzni eritadigan kuchli moddalardan biridir. Bu esa ko’p yillik muzlarning erishiga sabab bo’ladi. Orol dengizidagi ko’plab hayvonlar, baliqlar va qushlarning turlari kamayib ketmoqda. So’nggi yillarda bu muammoni bartaraf etish maqsadida Orol fondi tashkil etildi. Ko’chma qumlarni ushlab turish maqsadida ommaviy saksovu ekishga mablag’ ajratildi.

**Xulosa.** Suv tanqisligi insonning tabiatga bo’lgan shavqatsiz munosabati, yangi yerlarning o’zlashtirilishi, aholi sonining ortishi, o’rmon hududlarining kamayishi va boshqa ko’plab sabablar orqali vujudga kelmoqda. Suv tanqisligini oldini olish va ta’sirini kamaytirsak suvga bo’lgan ehtiyoj qondiriladi. Shu bilan birgalikda hayvonot va nabotot olami uchun ham Shunda biz avlodlarimizning ham kelajagini ta’minlagan bo’lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://daryo.uz/2023/11/22/markaziy-osiyoqa-suv-tanqisligini-oldini-olishda-10-ta-qadam-taklif-qilindi>
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol\\_dengizi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi)

3. <https://daryo.uz/2020/12/30/dunyo-okeaniga-bir-yarim-milliarddan-ortiq-ishlatilgan-niqob-tashlangan>
4. <https://uzsuv.uz/ru/posts/844>
5. <https://qalampir.uz/uz/news/suv-tank-isligi-buyicha-davlatlar-reytingi-e-lon-k-ilindi-7103>
6. <https://www.uzjoku.uz/uz/news/orol-muammosi-haqida>

